Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida sanoat aglomeratsiyasi va klasterlarini strategik rejalashtirish hamda hududiy optimal joylashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2010–2024 yillar uchun Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi, YaIM tarkibida sanoat ulushi, hududlar bo‘yicha sanoat ulushining dinamikasi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sanoat aglomeratsiyasi, sanoat klasteri, hududiy joylashtirish, Qashqadaryo viloyati, o‘sish qutbi, aglomeratsiya nazariyasi, klasterlash, reindustrializatsiya, demografik omillar, yangi korxonalar dinamikasi.

Abstract: The article analyzes the issues of strategic planning and optimal territorial placement of industrial agglomerations and clusters using the case of the Kashkadarya region. The study examines the total volume of industrial production in the region for 2010–2024, the share of industry in GDP, the dynamics of industrial distribution across districts, growth rates of industrial output, per capita industrial production, and the number of newly established industrial enterprises.

Key words: industrial agglomeration, industrial cluster, territorial placement, Kashkadarya region, growth pole, agglomeration theory, clustering, reindustrialization, demographic factors, dynamics of new enterprises.

Аннотация: В статье анализируются вопросы стратегического планирования и оптимального территориального размещения промышленных агломераций и кластеров на примере Кашкадарьинской области. В исследовании рассмотрены общий объем промышленного производства в регионе за 2010–2024 годы, доля промышленности в структуре ВВП, динамика удельного веса промышленности по районам, темпы роста производства промышленной продукции, объем промышленной продукции в расчёте на душу населения, а также количество вновь созданных промышленных предприятий.

Ключевые слова: промышленная агломерация, промышленный кластер, территориальное размещение, Кашкадарьинская область, полюс роста, теория агломерации, кластеризация, реиндустриализация, демографические факторы, динамика новых предприятий.

## KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanoatni jadallik bilan rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va hududiy sanoat zonalarini shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Qashqadaryo viloyati tarixan respublikaning muhim sanoat va qishloq xo‘jaligi markazlaridan biri bo‘lib, to‘qimachilik, mashinasozlik, kimyo, konchilik, metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoati tarmoqlari keng rivojlangan mintaqa sifatida ajralib turadi. Viloyatning boy tabiiy resurslari, mavjud transport infratuzilmasi va malakali ishchi kuchi sanoat aglomeratsiyasining shakllanishi uchun tabiiy zamin yaratgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, hududlarda 200 dan ortiq yangi sanoat zonalarini tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Shu bilan birga, erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar soni 2009-yildan 2025-yilgacha 30 dan ortiq hududga yetgani, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va YaIM tarkibida sanoat ulushi 18,7 foizdan 26,4 foizgacha o‘sgani sanoat siyosatining amaliy samaralaridan dalolat beradi.

Qashqadaryo viloyatida ham so‘nggi o‘n yillikda sanoatni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Viloyat sanoat mahsulotlari hajmining o‘sishi, tumanlar bo‘yicha sanoat ulushi va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot darajasidagi farqlar mintaqa ichki tuzilmasida yangi sanoat aglomeratsiya markazlari shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq bu jarayon hududlar kesimida keskin notekis kechmoqda: ba’zi tumanlar yuqori o‘sish sur’atlari va jon boshiga salmoqli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, boshqa hududlarda sanoat salohiyati past va sust rivojlanish kuzatilmoqda.

Maqolaning maqsadi — Qashqadaryo viloyati sanoat aglomeratsiya klasterini strategik rejalashtirish va optimal joylashtirishni 2010–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida tahlil qilish, nazariy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirib, hududiy sanoat siyosati uchun asosiy yo‘nalishlarni aniqlashdir.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar va yondashuvlardan foydalanildi:

Deskriptiv-statistik tahlil. 2010–2024-yillar uchun Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining jismoniy hajm indeksi, YaIM tarkibida sanoat ulushi, viloyat bo‘yicha sanoat mahsuloti hajmi (mlrd so‘mda) tahlil qilindi.




1-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash[1]

1 Muallif tadqiqotlari asosida aniqlangan ma’lumotlar Microsoft Excel dasturida kiritildi va vizuallashtirildi.

1-rasm yordamida tumanlar sanoat hajmidagi ulushi oʻzgarishi (X oʻqi) va oʻrtacha yillik oʻsish surʼati (Y oʻqi) boʻyicha guruhlandi; yuqori oʻsish va ulushi ortayotgan, oʻsishi past va ulushi kamayayotgan hududlar aniqlandi.




2-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarini aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi boʻyicha guruhlash[2]

2-rasm orqali aholi jon boshiga sanoat mahsuloti darajasi va oʻsish surʼatlari boʻyicha tumanlar I–IV kvadrantlarga ajratildi, “oʻsish drayverlari” va “eski sanoat hududlari” aniqlashtirildi.

Dinamik va komparativ tahlil. 2010–2024-yillar boʻyicha vaqt dinamikasi tahlili yordamida viloyat sanoat rivojlanishining bosqichlari (bosqichma-bosqich oʻsish, pandemiya davridagi sekinlashuv, post-pandemiya tiklanishi) ajratildi.

Tumanlar oʻrtacha oʻsish surʼatlari va ulush dinamikasi taqqoslanib, yuqori rivojlanayotgan, barqaror oʻsayotgan va orqada qolayotgan hududlar belgilandi.

Nazariy-modelli yondashuv. Klasterlashtirishning kumulyativ oʻsish nazariyalari (F.Perroux, J.Boudville), M.Porterning klaster konsepsiyasi, P.Krugmanning aglomeratsiya va yadro–periferiya modeli, Uilyamsonning tranzaksiya xarajatlari nazariyasi, internatsiallashuv, ijtimoiy modernizatsiya va bilimga asoslangan rivojlanish nazariyalari asosida hududiy sanoat joylashtirish tamoyillari tizimlashtirildi.

Sanoat aglomeratsiyalarini hududiy joylashtirishning asosiy tamoyillari (xom-ashyoga yaqinlik, bozorga yaqinlik, transport-logistika infratuzilmasi, mehnat resurslari, energiya taʼminoti, davlat siyosati, ekologik talablar, texnologik infratuzilma, klaster samarasi va hayot sifati) umumlashtirildi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, 2010–2024-yillar davomida Oʻzbekistonda va Qashqadaryo viloyatida sanoat sohasi barqaror oʻsish trendini namoyon etgan. Sanoatning YAIMdagi ulushi 2010-yildagi 18,7 foizdan 2024-yilda 26,4 foizga yetgani sanoatning milliy iqtisodiyotdagi strategik rolini kuchaytirgan. Qashqadaryo viloyatining sanoat hajmi ham mlrd soʻmda bir necha marotaba oshgan boʻlib, viloyatni respublika darajasidagi “sanoat oʻsish markazi” sifatida koʻrish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarishining jismoniy hajm indeksi 2010–2013-yillarda nisbatan past, ammo ijobiy surʼatlar bilan oʻsib borgan; 2014–2018-yillarda esa oʻsish faollashgan, ayrim yillarda sezilarli “sakrashlar” kuzatilgan. 2019–2020-yillarda pandemiya taʼsirida oʻsish surʼatlari pasaygan boʻlsa-da, 2021–2024-yillarda tiklanish va barqaror yuqori oʻsish qayd etilgan.

2 Muallif tadqiqotlari asosida aniqlangan maʼlumotlar Microsoft Excel dasturida kiritildi va vizuallashtirildi

1-jadval. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlar ulushi[3]

| | 2010y | 2015y | 2020y | 2021y | 2022y | 2023y | 2024y |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Qarshi shahri | 14,4 | 18,0 | 20,2 | 17,2 | 15,2 | 13,3 | 12,4 |
| Shahrisabz shahri | - | - | 2,2 | 1,7 | 2,0 | 1,6 | 1,9 |
| *tumanlar:* | | | | | | | |
| G‘uzor | 22,4 | 22,7 | 18,5 | 18,1 | 15,4 | 13,5 | 11,5 |
| Dehqonobod | 0,6 | 1,9 | 4,0 | 3,7 | 6,0 | 3,2 | 2,7 |
| Qamashi | 1,1 | 1,6 | 3,8 | 3,0 | 2,9 | 3,3 | 2,2 |
| Qarshi | 1,1 | 1,7 | 4,2 | 5,6 | 7,7 | 7,2 | 6,8 |
| Koson | 2,1 | 3,8 | 5,2 | 4,2 | 4,0 | 4,3 | 4,2 |
| Kitob | 0,5 | 1,4 | 2,7 | 1,8 | 3,0 | 4,7 | 3,8 |
| Mirishkor | 0,9 | 1,3 | 2,1 | 1,7 | 2,5 | 2,2 | 2,6 |
| Muborak | 51,2 | 32,3 | 4,3 | 3,3 | 2,6 | 2,9 | 3,1 |
| Nishon | 1,0 | 5,2 | 20,6 | 24,3 | 23,0 | 29,2 | 24,5 |
| Kasbi | 1,0 | 1,3 | 2,7 | 6,2 | 7,3 | 5,7 | 6,0 |
| Ko‘kdala | - | - | - | - | 0,5 | 0,5 | 0,7 |
| Chiroqchi | 0,6 | 1,6 | 2,5 | 2,3 | 2,3 | 2,7 | 2,3 |
| Shahrisabz | 2,3 | 5,6 | 2,9 | 2,7 | 2,0 | 1,8 | 2,7 |
| Yakkabog‘ | 0,8 | 1,6 | 4,3 | 4,2 | 3,5 | 3,8 | 2,5 |

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yilda viloyat sanoat ishlab chiqarishining yarmidan ko‘pi Muborak tumaniga (51,2 %) to‘g‘ri kelgan, G‘uzor tumani esa 22,4 % ulush bilan ikkinchi yirik sanoat markazi bo‘lgan. 2024-yilga kelib bu tuzilma keskin o‘zgargan: Muborakning ulushi 3–4 % atrofida shakllangan, G‘uzorning ulushi ham kamaygan, Nishon tumani esa 20–29 % atrofidagi ko‘rsatkichlar bilan sanoatning yangi yetakchi hududiga aylangan. Qarshi, Kitob va Kasbi tumanlari ulushi ham sezilarli oshgan, Qarshi shahri ulushi esa 18,0 % dan 12,4 % gacha tushgan.

Bu natijalar Qashqadaryo viloyati sanoat tuzilmasining monosentrik modeldan (bir necha yirik tumanlarga yuqori konsentratsiya) polisentrik modelga (bir nechta o‘sish nuqtalari) o‘tib borayotganini ko‘rsatadi. Shahrisabz shahri va Ko‘kdala tumanining viloyat sanoatidagi ulushi paydo bo‘lib, asta-sekin o‘smoqda.

2-jadval. Qashqadaryo viloyati va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari,4 o‘tgan yilga nisbatan foizda

| | 2010y | 2015y | 2020y | 2021y | 2022y | 2023y | 2024y | O’rtacha o’sish |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 97,5 | 105,1 | 102,9 | 115,4 | 110,1 | 107,4 | 107,5 | 106,5 |
| Qarshi shahri | 99,7 | 110,0 | 103,3 | 105,5 | 108,6 | 105,8 | 106,0 | **105,5** |
| Shahrisabz shahri | - | - | 101,5 | 100,4 | 105,7 | 103,4 | 108,7 | **103,9** |
| tumanlar: | | | | | | | | |
| G’uzor | 74,9 | 101,6 | 108,5 | 110,5 | 98,0 | 103,5 | 108,1 | **100,7** |
| Dehqonobod | 158,2 | 156 | 102,7 | 102,8 | 127,1 | 73,8 | 105,4 | **118** |
| Qamashi | 103,6 | 117,1 | 113,9 | 100,2 | 113,3 | 106,6 | 109,3 | **109,1** |
| Qarshi | 110,7 | 114,5 | 82,5 | 131,3 | 121,1 | 101,9 | 108,1 | **110** |
| Koson | 124,1 | 118,4 | 102,3 | 100,2 | 103,7 | 106,4 | 109,7 | **109,2** |
| Kitob | 123,5 | 128,7 | 100,4 | 98,8 | 117,6 | 119,2 | 102,4 | **112,9** |
| Mirishkor | 116,6 | 114,7 | 100,8 | 119,5 | 132,5 | 106,5 | 110,3 | **114,4** |

3 https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2
4 https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Muborak | 107,6 | 99,5 | 89 | 88,6 | 97,3 | 104,4 | 110,4 | 99,5 |
| Nishon | 106,6 | 93,3 | 101,6 | 146,2 | 104,7 | 113,8 | 106,0 | **110,3** |
| Kasbi | 106,8 | 111,7 | 118,8 | 164,1 | 112,1 | 102,3 | 107,2 | **117,5** |
| Ko'kdala | - | - | - | - | 100,3 | 108,4 | 109,1 | **105,9** |
| Chiroqchi | 109,7 | 118,4 | 109,1 | 104,1 | 103,4 | 104,5 | 105,6 | **107,8** |
| Shahrisabz | 105,5 | 115,2 | 103,6 | 101,8 | 104,0 | 102,5 | 102,1 | **104,9** |
| Yakkabog' | 118,9 | 117,5 | 109,9 | 102,5 | 100,1 | 108,4 | 98,2 | **107,9** |

2-jadvaldan ko'rinadiki, viloyat bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 106,5 % atrofida. Dehqonobod (118,0 %), Kasbi (117,5 %), Mirishkor (114,4 %), Kitob (112,9 %), shuningdek Qarshi, Nishon, Qamashi va Koson tumanlarida o'rtacha o'sish sur'atlari viloyat darajasidan yuqori bo'lib, bu hududlarni "yuqori dinamika zonalari" sifatida baholash imkonini beradi. G'uzor, Muborak, Kasbi va Chiroqchi tumanlarida esa ayrim yillarda keskin tebranishlar yoki past sur'atlar kuzatilgan.

3-jadval. Qashqadaryo viloyati va tumanlar kesimida aholi soni[5]

| | 2020y | 2021y | 2022y | 2023y | 2024y |
|---|---|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 3 280,4 | 3335,4 | 3408,3 | 3482,3 | 3560,6 |
| Qarshi sh. | 274,9 | 278,3 | 283,2 | 288,9 | 295,6 |
| Shahrisabz sh. | 139,1 | 140,5 | 142,7 | 144,8 | 147,2 |
| tumanlar: | | | | | |
| G'uzor | 203,4 | 207,7 | 212,4 | 217,3 | 222,2 |
| Dehqonobod | 146,9 | 149,8 | 153,1 | 156,3 | 159,5 |
| Qamashi | 270,8 | 274,6 | 280,6 | 286,8 | 293,1 |
| Qarshi t | 247,4 | 252,6 | 259,4 | 265,6 | 272,1 |
| Koson | 284,5 | 290,6 | 297,5 | 304,6 | 312,1 |
| Kitob | 263,8 | 266,4 | 271,2 | 276,3 | 282,0 |
| Mirishkor | 119,2 | 121,5 | 124,1 | 126,8 | 129,6 |
| Muborak | 86,6 | 88,2 | 90,3 | 91,9 | 93,4 |
| Nishon | 152,3 | 155,5 | 159,2 | 162,7 | 166,6 |
| Kasbi | 195,9 | 199,8 | 204,0 | 208,4 | 213,0 |
| Ko'kdala | | | | 183,3 | 188,7 |
| Chiroqchi | 410,4 | 419,8 | 432,0 | 260,7 | 267,9 |
| Shahrisabz t | 222,0 | 223,8 | 227,6 | 231,2 | 235,1 |
| Yakkabog' | 263,2 | 266,1 | 271,0 | 276,7 | 282,5 |

3-jadvalda keltirilgan aholi soni ma'lumotlari sanoat rivojlanishi tahlilida demografik fonni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. 2010–2024-yillarda viloyat aholisining ko'payishi fonida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti 1857,1 ming so'mdan 10865,8 ming so'mga oshgan. Qarshi shahrida bu ko'rsatkich 2974,6 ming so'mdan 16269,9 ming so'mga, G'uzor tumanida 6647,5 dan 20116,7 ming so'mga yetgan. Eng katta sakrash Nishon tumanida qayd etilib, jon boshiga mahsulot 444,2 ming so'mdan 56848,9 ming so'mga ko'tarilgan.

Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog' va Ko'kdala tumanlarida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti viloyat o'rtachasidan ancha past bo'lib qolmoqda. Bu hududlar hali sanoat salohiyatini to'liq ishga solmagan "kechikkan rivojlanish" zonalari sifatida qaralishi mumkin.

5 https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2

4-jadval. Qashqadaryo viloyati va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ming so'm),[6]

| | 2010y | 2015y | 2020y | 2021y | 2022y | 2023y | 2024y |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 1857,1 | 2914,8 | 4417,4 | 5567,2 | 6566,7 | 8169,2 | 10865,8 |
| Qarshi shahri | 2974,6 | 6022,0 | 10781,0 | 11518,1 | 12053,2 | 13082,5 | 16269,9 |
| Shahrisabz shahri | - | - | 2248,7 | 2318,6 | 3197,5 | 3219,8 | 4912,2 |
| tumanlar: | | | | | | | |
| G'uzor | 6647,5 | 10587,8 | 13133,3 | 16179,7 | 16247,3 | 17720,4 | 20116,7 |
| Dehqonobod | 231,6 | 1254,9 | 3924,9 | 4575,9 | 8735,1 | 5825,9 | 6494,6 |
| Qamashi | 243,7 | 581,8 | 2032,4 | 2007,9 | 2345,6 | 3315,2 | 2902,5 |
| Qarshi | 282,1 | 681,1 | 2511,9 | 4092,7 | 6653,8 | 7755,8 | 9657,9 |
| Koson | 456,1 | 1278,9 | 2674,6 | 2703,3 | 3035,9 | 3986,5 | 5253,2 |
| Kitob | 103,3 | 512,1 | 1257,8 | 1247,0 | 2491,7 | 4828,3 | 5256,0 |
| Mirishkor | 482,3 | 1007,7 | 2303,9 | 2596,0 | 4480,9 | 4976,3 | 7660,9 |
| Muborak | 35375,4 | 35416,5 | 7757,7 | 6932,5 | 6477,4 | 8914,6 | 12782,2 |
| Nishon | 444,2 | 3349,2 | 19462,0 | 29000,8 | 32382,6 | 50937,0 | 56848,9 |
| Kasbi | 324,0 | 641,0 | 1981,9 | 5768,2 | 8003,7 | 7730,2 | 10920,7 |
| Ko'kdala | - | - | - | - | 633,0 | 808,7 | 1342,4 |
| Chiroqchi | 96,0 | 378,5 | 884,8 | 1015,7 | 2007,0 | 2945,2 | 3377,9 |
| Shahrisabz | 370,6 | 1453,0 | 1900,4 | 2214,1 | 1928,9 | 2244,6 | 4438,6 |
| Yakkabog' | 179,0 | 597,5 | 2324,4 | 2922,0 | 2856,1 | 3948,8 | 3462,7 |

Nishon tumanida jon boshiga sanoat mahsuloti 2010-yildagi 444,2 ming so'mdan 2024-yilda 56848,9 ming so'mga oshgan – bu sanoat korxonalari va yirik loyihalar aynan shu hududda to'planganidan dalolat beradi. G'uzor tumani ham doimiy ravishda viloyat o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib, 2010-yildagi 6647,5 dan 2024-yilda 20116,7 ming so'mga yetgan. Muborak tumanida 2010-2015 yillarda juda yuqori (35 ming so'm atrofida) bo'lgan ko'rsatkich 2020-yillarda pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda ham 12782,2 ming so'm bilan viloyat o'rtachasidan yuqori darajada qolmoqda. Bu eski yirik sanoat bazasining nisbatan sekin transformatsiyasini ko'rsatadi.

5-jadval. Qashqadaryo viloyati tumanlarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni dinamikasi (birlikda va o'zgarishi foiz hisobida)[7]

| Hududlar | 2020y | 2021y | 2021y 2020y ga nisb, o'zg % | 2022y | 2022y 2021y ga nisb, o'zg % | 2023y | 2023y 2022y ga nisb, o'zg % | 2024y | 2024y 2023y ga nisb, o'zg % | 5 yillik o'rtacha o'sish foizi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 887 | 1358 | 153,1 | 1641 | 120,8 | 909 | 55,4 | 729 | 80,2 | 102,4 |
| G'uzor | 50 | 110 | 220,0 | 146 | 132,7 | 110 | 75,3 | 46 | 41,8 | 117,5 |
| Dehqonobod | 19 | 47 | 247,4 | 61 | 129,8 | 19 | 31,1 | 16 | 84,2 | 123,1 |
| Qarshi | 50 | 96 | 192,0 | 121 | 126,0 | 92 | 76,0 | 89 | 96,7 | 122,7 |
| Koson | 41 | 52 | 126,8 | 121 | 232,7 | 48 | 39,7 | 47 | 97,9 | 124,3 |
| Qamashi | 34 | 61 | 179,4 | 172 | 282,0 | 64 | 37,2 | 59 | 92,2 | 147,7 |
| Kitob | 98 | 99 | 101,0 | 132 | 133,3 | 64 | 48,5 | 43 | 67,2 | 87,5 |

6 https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2
7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Mirishkor | 28 | 57 | 203,6 | 88 | 154,4 | 27 | 30,7 | 30 | 111,1 | 124,9 |
| Muborak | 36 | 37 | 102,8 | 26 | 70,3 | 20 | 76,9 | 15 | 75,0 | 81,2 |
| Nishon | 31 | 42 | 135,5 | 35 | 83,3 | 22 | 62,9 | 46 | 209,1 | 122,7 |
| Kasbi | 82 | 107 | 130,5 | 58 | 54,2 | 42 | 72,4 | 31 | 73,8 | 82,7 |
| Chiroqchi | 82 | 134 | 163,4 | 67 | 50,0 | 39 | 58,2 | 21 | 53,8 | 81,4 |
| Shaxrisabz | 100 | 161 | 161,0 | 192 | 119,3 | 125 | 65,1 | 91 | 72,8 | 104,5 |
| Yakkabog‘ | 81 | 121 | 149,4 | 118 | 97,5 | 65 | 55,1 | 62 | 95,4 | 99,3 |
| Ko’kdala | | | | 45 | | 32 | 71,1 | 44 | 137,5 | 104,3 |
| Qarshi shaxri | 155 | 234 | 151,0 | 259 | 110,7 | 140 | 54,1 | 89 | 63,6 | 94,8 |

5-jadval ma’lumotlari Qashqadaryo viloyatida 2020–2024-yillar davomida yangi sanoat korxonalari tashkil etilishi notekis kechganini ko‘rsatadi. 2022-yilda eng yuqori natija (1641 ta yangi korxona) qayd etilgan bo‘lsa, 2023–2024-yillarda bu ko‘rsatkich mos ravishda 909 va 729 taga qisqartirilgan. Viloyat bo‘yicha 5 yillik o‘rtacha o‘sish 102,4 %ni tashkil etib, umumiy fon ijobiy bo‘lib qolmoqda.

G‘uzor, Dehqonobod, Qarshi tumani, Koson, Qamashi, Mirishkor va Nishon tumanlarida 5 yillik o‘rtacha o‘sish 120 % va undan yuqori, ya’ni yangi korxonalar soni tez sur’atlarda ko‘paymoqda. Kitob, Muborak, Kasbi, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Qarshi shahrida 5 yillik o‘rtacha o‘sish 100 %dan past bo‘lib, yangi korxona tashkil etish sur’ati nisbatan sust.

Qashqadaryo viloyatida sanoat o‘sishining hududiy notekisligi F.Perroux va J.Boudville’ning kumulyativ o‘sish va “o‘sish qutblari” nazariyalari bilan izohlanadi: ayrim tumanlarda (Nishon, Qarshi t., Dehqonobod, Kasbi, G‘uzor) yirik sanoat korxonalari, yangi quvvatlar va investitsiyalar konsentratsiyalashib, u yerlarda ishlab chiqarish, infratuzilma va aholi jon boshiga mahsulot tez o‘smoqda; boshqa hududlarda esa bu jarayon sust kechmoqda.

M.Porterning klaster konsepsiyasiga ko‘ra, bir hududda o‘zaro bog‘liq korxonalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ta’lim va ilmiy muassasalar jamlanishi raqobatbardoshlikni keskin oshiradi. Qashqadaryo viloyatida ayniqsa qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq klasterlar (fermer xo‘jaliklarining birlashuvi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) shakllanmoqda; bu esa sanoat aglomeratsiyasining agrar asosli variantini yuzaga keltirmoqda.

P.Krugmanning aglomeratsiya va yadro–periferiya modeli nuqtai nazaridan qaralganda, viloyat ichida “yadro hududlar” (Nishon, G‘uzor, Muborak, Qarshi sh.) va “periferiya hududlar” (Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog‘, Ko‘kdala) aniq ko‘rinadi. Yadro hududlarda sanoat korxonalari, transport infratuzilmasi, kapital va malakali ishchi kuchi konsentratsiyasi yuqori; periferiya hududlarda esa aglomeratsiya samaralari cheklangan. Strategik rejalashtirishning vazifasi – yadro hududlarning o‘sish samaralarini periferiyaga “tarqatish”, ya’ni tarqalish effektini kuchaytirishdir.

Uilyamsonning tranzaksiya xarajatlari nazariyasiga muvofiq, korxonalar joylashuv qarorlarini nafaqat transport va ishlab chiqarish xarajatlari, balki institutsional muhit, infratuzilma, risklar va hamkorlik tarmoqlari bilan bog‘liq tranzaksiya xarajatlarini hisobga olgan holda qabul qiladi. Qashqadaryoda erkin iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartibga solish muhitining yaratilishi aynan shu tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

1-rasm va 2-rasm asosida tumanlarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

I-guruh – yuqori o‘sish va ulushi ortayotgan hududlar: Dehqonobod, Qarshi t., Koson, Kitob, Mirishkor, Nishon, Kasbi. Bu hududlar viloyat sanoat aglomeratsiyasining asosiy o‘sish drayverlari bo‘lib, ular uchun klasterlarni chuqurlashtirish, qo‘shimcha infrastruktura (logistika markazlari, energetika, kadrlar tayyorlash) va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish dolzarbdir.

II-guruh – o‘sish sur’ati o‘rtacha, ulushi ortayotgan hududlar: Qamashi, Ko‘kdala, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog‘. Bu tumanlar sanoatning hududiy diversifikatsiyasiga xizmat qiladigan “ikkinchi darajali o‘sish zonalari” bo‘lib, ularda kichik sanoat zonalari, biznes-inkubatorlar, servis va logistika klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

III-guruh – ulushi va o‘sishi pasayib borayotgan eski sanoat hududlari: Muborak va G‘uzor. Bu tumanlar tarixan yirik sanoat bazasiga ega bo‘lib, hozirgi kunda jon boshiga mahsulot darajasi yuqori bo‘lsa-da, ulush va o‘sish sur’atlari pasaymoqda. Ular uchun reindustrializatsiya, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni jalb etish va ekologik modernizatsiya zarur.

IV-guruh – o‘sish potensiali yuqori, ammo sust hududlar: aholisi katta, lekin yangi korxonalar tashkil etish sur’atlari past va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti viloyat o‘rtachasidan past bo‘lgan tumanlar. Bu tumanlar uchun selektiv rag‘batlar, infratuzilmaviy “turtki loyihalar” va kadrlar salohiyatini oshirish orqali sanoat aglomeratsiyasiga jalb etish zarur.

Strategik rejalashtirish va optimal joylashtirish tamoyillari. Yuqoridagi nazariy va amaliy natijalar asosida Qashqadaryo viloyati sanoat aglomeratsiya klasterini strategik rejalashtirishda quyidagi tamoyillar muhimdir:

Xom-ashyoga va bozorga yaqinlikni uyg‘unlashtirish. Konchilik, energetika, qishloq xo‘jaligi xom-ashyosiga yaqin tumanlarda (Muborak, G‘uzor, Nishon) chuqur qayta ishlash klasterlarini rivojlantirish, tayyor mahsulotlarni esa iste’mol bozorlariga yaqin hududlarda (Qarshi sh., Qarshi t., Koson) joylashtirish.

Transport-logistika infratuzilmasini aglomeratsiya skeletiga aylantirish. Avtomobil va temir yo‘l magistrallari kesishmalarida logistika tugunlarini joylashtirish, sanoat zonalarini ushbu tugunlar bilan bog‘lash, “oxirgi kilometr” infratuzilmasini yaxshilash.

Mehnat resurslari va kadrlar tayyorlash. Yuqori sanoat dinamikasiga ega tumanlarda kasb-hunar markazlari, universitet filiallari, dual ta’lim dasturlari orqali kadrlar tayyorlash tizimini klasterlar bilan integratsiyalash.

Ekologik va ijtimoiy barqarorlik. Atrof-muhitga ta’siri yuqori tarmoqlarni ekologik talablar qat’iyroq bo‘lgan hududlarda modernizatsiya qilish, “yashil texnologiyalar” va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini klasterlar tarkibiga kiritish.

Raqamlashtirish va bilimga asoslangan rivojlanish. Sanoat korxonalari, ilmiy markazlar, universitetlar va innovatsion infratuzilmani birlashtiruvchi “raqamli sanoat platformalari”ni joriy etish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni kuchaytirish.

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati sanoat aglomeratsiya klasteri shakllanishi va rivojlanishi murakkab, ammo ijobiy dinamikaga ega ekanini ko‘rsatdi. 2010–2024-yillarda viloyat sanoatining umumiy hajmi, YaIM tarkibidagi ulushi va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ko‘rsatkichlari bir necha marotaba oshgan bo‘lsa-da, hududlar kesimida keskin notekislik saqlanib qolmoqda.

Monosentrik tuzilmadan polisentrik modelga o‘tish jarayoni – Muborak va G‘uzor kabi eski sanoat hududlarining ulushi pasayishi, Nishon, Qarshi tumani, Dehqonobod, Kasbi, Kitob va boshqa tumanlarda yangi o‘sish markazlarining paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘lmoqda. Bu esa viloyat sanoat aglomeratsiyasining ichki fazoviy strukturasi o‘zgarayotganidan dalolat beradi.

Nazariy yondashuvlar (kumulyativ o‘sish, klaster nazariyasi, aglomeratsiya va yadro–periferiya modeli, tranzaksiya xarajatlari, internatsiallashuv va ijtimoiy modernizatsiya) Qashqadaryoda kuzatilayotgan amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashadi va hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida Qashqadaryo viloyati sanoat aglomeratsiya klasterini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni ajratish mumkin:

- Yuqori o‘sish sur’atlariga ega tumanlarda chuqur klasterlashuvni rag‘batlantirish va xalqaro bozorlarga integratsiyani kuchaytirish.
- Eski sanoat hududlarida reindustrializatsiya va diversifikatsiya dasturlarini amalga oshirish.
- Past sanoat salohiyatiga ega, ammo demografik potensiali yuqori tumanlarda infratuzilmaviy turtki loyihalar va selektiv imtiyozlar orqali sanoatni kengaytirish.
- Sanoatni optimal joylashtirishda ekologik cheklovlar, transport-logistika, kadrlar salohiyati va hayot sifati omillarini kompleks hisobga olish.

Mazkur yondashuvlar Qashqadaryo viloyatini nafaqat mamlakat ichidagi, balki kengroq mintaqaviy sanoat aglomeratsiya markaziga aylantirish uchun ilmiy-uslubiy asos yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida 2010–2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarishining hajmi, hududlar kesimida sanoat ulushi, aholi jon boshiga mahsulot ko‘rsatkichlari va yangi korxonalar dinamikasida sezilarli ijobiy o‘sish kuzatildi. Biroq o‘sish sur’atlari hududlar bo‘yicha notekis bo‘lib, viloyat ichida monosentrik modeldan polisentrik sanoat strukturasiga o‘tish jarayoni shakllanmoqda. Nishon, Qarshi tumani, Dehqonobod, Kasbi kabi tumanlarda yangi sanoat markazlarining jadal rivojlanishi kuzatilsa, Muborak va G‘uzor kabi eski sanoat hududlarida ulushning pasayishi qayd etildi. Bu holat sanoat aglomeratsiyasini optimal rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Viloyatda ro‘y berayotgan fazoviy sanoat siljishlari F. Perrouxning kumulyativ o‘sish nazariyasi, M. Porterdagi klaster modeli hamda P. Krugmanning yadro–periferiya yondashuviga mos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, klasterlarning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarishni optimal joylashtirish bo‘yicha kompleks siyosiy choralar talab etiladi.

Takliflar:

1. Yuqori o‘sish sur’atlariga ega tumanlarda (Nishon, Qarshi t., Dehqonobod, Kasbi) chuqur sanoat klasterlarini shakllantirish, yetkazib beruvchilar zanjirini rivojlantirish, innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash.

2. Muborak va G‘uzor tumanlarida reindustrializatsiya dasturlarini joriy etish, mavjud yirik sanoat bazasini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni jalb etish va ekologik modernizatsiyani amalga oshirish.

3. Past sanoat salohiyatiga ega tumanlarda (Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog‘, Ko‘kdala) “turtki infratuzilma loyihalari”ni boshlash, kichik sanoat zonalari, logistika markazlari va biznes-inkubatorlar tashkil etish orqali sanoatni jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish.

4. Sanoatni hududiy joylashtirishda transport-logistika infratuzilmasini kuchaytirish, tarmoqlararo bog‘liqlikni yaxshilash, Qarshi shahri va asosiy magistrallar atrofida sanoat tugunlarini shakllantirish.

5. Mehnat resurslari ta’minoti uchun hududiy kadrlar tayyorlash tizimini klasterlar bilan integratsiyalash, kasb-hunar maktablari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari qoshida sanoatga ixtisoslashgan ta’lim markazlari tashkil etish.

6. “Raqamli sanoat aglomeratsiyasi” platformasini yaratish, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari monitoringi, investisiya loyihalarini joylashtirish, klasterlar faoliyatini baholash va boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish.

7. Ekologik barqarorlik talablarini kuchaytirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va mintaqaviy ekologik monitoring tizimini rivojlantirish.

Ushbu takliflar Qashqadaryo viloyatining sanoat aglomeratsiya klasterini shakllantirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi va mintaqani O‘zbekistonning eng yirik sanoat markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. Perroux F. Economic Space: Theory and Application. Paris, 1950.
3. Boudville J.G. Problems in Regional Planning. Edinburgh, 1966.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Krugman P. Geography and Trade. Leuven–Cambridge, 1991.
6. Williamson O. The Economic Institutions of Capitalism. New York: Free Press, 1985.
7. Tambunan T.T.H. The Dynamics of Regional Development in Indonesia. – Jakarta, 2010.
8. UN-Habitat. World Cities Report. Nairobi, turli yillar nashrlari.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz